

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA RUHDOSHLIK IFODASI

*Shomurodova Shaxnoza Shermamat qizi**ToshD O'TA 1-kurs magistranti**shaxnozashomurodova22@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatida ruhdoshlik fenomenining badiiy-estetik va ma'naviy mohiyati tadqiq etiladi. Shoir lirikasida inson, xalq va Vatan taqdiri bilan bog'liq ruhiy kechinmalar, qalbdoshlik va hamdardlik tuyg'ularining poetik ifodasi tahlil qilinadi. A. Oripov she'rlarida shoir shaxsiy ruhiy iztiroblarini millat va bashariyat dardi bilan uyg'unlashtira olgan ijodkor sifatida namoyon bo'lishi she'rlari asosida ochib beriladi. Ruhdoshlik tushunchasining shoir ijodida ramziy obrazlar, badiiy vositalar va falsafiy umumlashmalar orqali ifodalanishi yoritilib, ijodkor lirikasining gumanistik mohiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, ruhdoshlik, lirika, badiiy tafakkur, millat dardi, Vatan, gumanizm, poetik obraz.

Abstract. This article examines the artistic, aesthetic, and spiritual essence of the concept of spiritual affinity in the poetry of Abdulla Oripov. The study analyzes the poetic expression of inner experiences, emotional solidarity, and empathy connected with the fate of the individual, the nation, and the homeland in the poet's lyrics. Through textual analysis, the article reveals how Oripov harmonizes personal emotional suffering with national and universal concerns. Special attention is paid to the symbolic imagery, artistic devices, and philosophical generalizations through which the idea of spiritual affinity is conveyed, highlighting the humanistic essence of the poet's lyrical heritage.

Keywords: Abdulla Oripov, spiritual affinity, lyric poetry, artistic thinking, national pain, homeland, humanism, poetic image.

Аннотация. В данной статье исследуется художественно-эстетическая и духовная сущность феномена духовного родства в поэзии Абдуллы Орипова. Анализируется поэтическое выражение душевных переживаний, сопричастности и сострадания, связанных с судьбой личности, народа и Родины в лирике поэта. На основе анализа поэтических текстов раскрывается способность Орипова соединять личные духовные страдания с общенациональной и общечеловеческой болью. Особое внимание уделяется символическим образам, художественным средствам и философским обобщениям, посредством которых выражается идея духовного родства, а также обосновывается гуманистическая направленность лирического наследия поэта.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, духовное родство, лирика, художественное мышление, боль народа, Родина, гуманизм, поэтический образ.

Kirish. Ruhiyat muammosini tadqiq etish nafaqat adabiyotshunoslikning, balki psixologiya, estetika, tibbiyot fanlarining ham dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Inson ruhiyatini butun murakkabligi, ziddiyatli, ko‘zga ko‘rinmas, yashirin jihatlari bilan ko‘lamli tarzda talqin etish nihoyatda qiyin jarayondir. Adabiyotning asosida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish ijodkorning bosh maqsadi hisoblanadi. Shu ma’noda ijodkor mahorati ham bevosita inson qalbining kechinmalarini qay darajada haqqoniy tasvirlay olishi bilan belgilanadi. U.Normatov haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o‘rnini bosolmaydi.”¹ Abdulla Oripov adabiyotimizda ruhiyatni juda go‘zal kashf eta olgan tengsiz ijodkorlardan biridir. Shoir she’rlarining hech bir misrasi yo‘qki, o‘qirman qalbini, vujudini, ruhini so‘ngsiz o‘y, dard, nomsiz tuyg‘ular bilan chulg‘amasa. Axir bu betakror misralarning har bir o‘tli so‘zlari ming anduhlar, ozorlar olovida uzoq toblanib so‘ngra qog‘ozga tushirilgan-ku!

Asosiy qism. Abdulla Oripov pok ruh, toza vijdon bilan yashab o‘tmoqlikni qismat deb bilgan buyuk ijodkor, yurtning asl farzandi edi. Erkin A’zam bu haqida shunday deydi: “A. Oripov she’riyati – shoir-muallif umrininggina emas, butun bir zamondosh avlodning ruhiy xaritasi. Shoir hayotini shu xaritaga qarab o‘rganish mumkin, millat taqdiriga esh bu umrnoma misolida serdolg‘a kelgan davrning tavsifnomasini o‘qish mumkin.”² Haqiqatdan ham shoir butun hayoti davomida xalqning g‘am-tashvishlariyu dardini, orzu-umidlarini yurak-yuragidan chuqur idrok etib qalamga olgan, shu og‘riqlarga malham bo‘lishga, maqsadlarga esa qanot bo‘lishga hayotini baxsh etgan va boshqalarni ham hamisha vatanparvarlikka chorlab yashagan. Umrining har soniyasida millat g‘amlarini ehtirosli kuylagan, xalqimizning buyuk qadr-qimmati, sha’ni uchun mardona kurasha olgan, yurtdoshlarimizga Vatan qadrini, milliy o‘zligimizni anglatishda Navoiy va Cho‘lponlarning nurli izidan dadil yurib borgan. Bu kuchli chaqiriqlar, chorlovlar borasida, ya’ni milliy o‘zlikni, asl hayotiy haqiqatlarni anglashni va xalqimizga anglatishni daho ijodkor bir pog‘ona balandga ko‘tardi. Shoir tengsiz ijodi orqali o‘z davridagi yechimga muhtoj turli mummolarni umuminsoniy mezonlar asosida anglab, millat dardi-yu armonlarini butun bashariyat dardiga aylantirdi.

Shoir xalqimizning o‘tmishi, yashab turgan davri hatto kelajagi uchun ham birdek qayg‘urgan, ular bilan makonlar, zamonlar aro qalbdosh, ruhdosh bo‘lib yashagan. She’rlardagi oddiy holat, manzara tasviri ruhiy holat ifodasiga aylangan.

Shoirning Armanistonga atalgan she’rida shunday misralarni uchratamiz:

Mening ham Vatanim janglar guvohi,

¹ U.Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent-1998

² Abdurahim Erkaev “Abdulla Oripov dahosi” “Oltin nashr”. Toshkent-2021

Mening ham tuprog‘im toptalganda xor,
Mening ham ruhimda ajdodlar ohi,
Mening ham qonimda qilich zangi bor.³

She‘rdan keltirilgan parchani tahlil qilar ekanmiz, sakkiz qator misrani yozmoq uchun shoir qalbida ona xalqimizga bo‘lgan minglab kitoblarga ham sig‘mas yuksak muhabbat jo ekanligini, millatimiz uzoq yillar mobaynida boshidan kechirgan cheksiz azoblarni o‘ylab ruhiyatidan kechirgan achchiq iztroblarni his qilamiz. “Mening ham ruhimda ajdodlar ohi” misrasi orqali A.Oripov Ona xalqimizning o‘tmishdagi uqubatlari va zahmatlari, nokaslarni deya toptalgan Vatanimizning har qarich tuprog‘i uchun yuragida yashab kelayotgan dardni anglaymiz. “Mening ham qonimda qilich zangi bor”- xalqimizning qalb jarohatlari shoir yuragida ham hamon bitmasdan kuchli og‘riq berib kelayotganini ifodalaydi.

Minorlar emas bu - falakka qasam,
Qasoskor bobolar ketmishlar sanchib.
Men tortgan g‘amni ham bir-bir sanasam,
O‘lik fir‘avnlr ketarlar sapchib.⁴

Go‘yo tarixning barcha sirlaridan so‘zlayotgandek tuyilgan hashamatli minorlar necha-necha asrlar o‘tsa-da, insonlarni doimo mahliyo etib keladi. Go‘zallakning, san‘atning, inson mehnati-yu takkurining betakror na‘munasi bo‘lgan minorlarni shoir she‘rda qasoskor ajdodlarimizning mislsiz xo‘rlklar uchun albatta qasos olishlarini aytib, falakka qasam ichib, yerga sanchib ketgan deya yozadi. Bu qadar noan‘anaviy o‘xshatish barcha kitobxonda g‘oyatda ajoyib badiiy zavq uyg‘otadi.

Keyingi misrada “Men tortgan g‘amni bir-bir sanasam, O‘lik fir‘avnlr ketarlar sapchib” deya mubolag‘aning go‘zal na‘munasini keltiradi. Ma‘lumki, Fir‘avnlr Qur‘onda Misrning eng yomon shohlari, yovuzlik, zulmning namoyondalari sifatida ko‘rsatiladi. Shoir demoqchiki, shu qadar zulmkash podshohlar ham begunoh ajdodlarim chekkan jabr-u zulmdan xabar topsa, bardosh qila olmasdan tobutidan turib ketar edilar.

Vatanini butun vujudi, ruhi ila sevis, xalqini ardoqlash, e‘zozlash shoir uchun nafaqat hamisha yonib yashashga undovchi tug‘ma tuyg‘ular, balki ijodining asosiy mohiyatini anglatuvchi mavzular hamdir. Bu tuyg‘ular aslo manfaat yoxud allaqanday “o‘zga” maqsadlar uchun qog‘ozga tushirilmagan. Zero, har bir she‘r yurtning asl farzandining millati ahvoloti uchun qayg‘urish, yurtdoshlarining dardlariga malham bo‘lish istagi, ruhidagi bezovtalik, qalbidagi og‘riqlaridan paydo bo‘ldi.

³ Abdulla Oripov “Dunyo” G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent-2020

⁴ Abdulla Oripov “Dunyo” G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent-2020

Shoirning “Tilla baliqcha” she’ri mazlum xalq va Vatan haqida bitilgan. She’rning biror o’rnida garchi bu so’zlarni uchratmasak ham asl mazmunni ifodalaganiga guvoh bo‘lamiz.

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni!⁵

She’rda juda aniq va hayotiy manzara shoirning buyuk iste’dodi orqali o‘ta go‘zal ifodalangan. Ushbu she’rda har bir obraz ramziydir. Ushbu realistik tasvirdan esa shunchaki badiiy vosita sifatida foydalanilgan. “Loyqa hovuz” she’r yozilgan davr ya’ni o‘tgan asrimizning fojeali yillari, benavo va nochor mamlakat, “tilla baliqcha” esa o‘sha davrning begunoh qurbonlari bo‘lgan mazlum xalq, “tashlandiq ushoq” insonlarga majburan singdirilayotgan g‘oyalar edi. Shu ma’noda she’r SSR sovet tuzumiga qarshi shoirning she’r orqali qilayotgan kuchli isyonidir. Zero, A.Oripov bu she’rining yozilishidan maqsad mana shu g‘oya ekanligini aytib, she’rni bunday baholamagan bo‘lsa-da, uning ruhiyatida hamisha aynan shu azob, iztirob bo‘lganini anglay olamiz. Bu haqida A. Erkayev shunday deydi: “Shoirning ongi tubida, ong ostida Go‘ro‘g‘li va Alpomishdan, Navoiy va Cho‘lpondan kelayotgan arxetip- adolat va Vatan ozodligi kurashchisi ruhi yashardi. Shu sabab nima haqda yozmasin, Vatan va xalq mavzusi beixtiyor yuzaga chiqib kelaverardi”. Haqiqiy yurt farzandi bo‘lish, millat dardi bilan yashash, ularga chora izlab yashash shoirdek buyuk insonlargagina xos hayot yo‘lidir. Shubhasiz, bunday insonlarning butun umri millat taqdiriga, xalq ruhiga, qalbiga birlashib ketgan bo‘ladi. Shu sabab ham ular har daqiqa yuragida yongan millatvarvarlik, ruhidagi ma’naviy isyonlar, ulkan Vatanparvarlik g‘oyalari bilan yashab o‘tadilar.

Shoir ijodi, g‘oyalari orqali nafaqat o‘zbek xalqi uchun kuyunadi, uning buyuk istiqboli, farovon hayoti uchun kurashadi, balki butun insoniyatni gumanizmning oliy darajasiga chorlaydi. Adibning millat hayotidagi xunrezliklar sabab ruhiyatida kechayiotgan kuvhli bezovtalik ushbu she’rda shunday ifoda qilinadi:

Bir vaqtlar ilhomning o‘tli tug‘ida,
Falakni kuylardi mening ham sozim.
Lekin ikki daryo oralig‘ida,

⁵ Abdulla Oripov “Saylanma” “Tafakkur qanoti” nashriyoti.
Toshkent-2019

Qolib ketdi o'sha mening ovozim.⁶

She'riy parcha qisqa bo'lishiga qaramasdan unda fodalangan ma'no juda katta. Garchi ushbu xitob ijodkorning orqali ovozi ikki daryoning o'rtasida qolib dunyoga mashhur bo'la olmayotganidan o'kinishdek tuyilsa-da, aslida shoir rost so'zlarini, bashariyat uchun kuchli chaqiriqlarini, ezgulik va halollik uchun chorlovlarini ko'pgina insonlar eshita olmayotganidan afsuslanadi. Barchani oddiy insonlarning armonlarini, tashvishlari-yu dardlarini tushunishga, ularga yordam qo'lini uzatishga, olamga mehr nigohlari bilan qarashga chorlaydi. Butun jismi va ruhi haqiqat, adolat va darddoshlik tuyg'ulariga to'lgan buyuk insonlargina ana shunday da'vatlar bilan dunyoga jar solmoqqa qodirdir:

Muallaq gaplarni so'ylama menga,
Endi men yer uzra topganman qo'nim.
Inson deb falakka hayqirmoq nega,
Inson yoningda-ku, u mening qo'shnim.

Hech bir zamonda, makonda shoir balandparvoz, jo'n fikrlar-u so'zlarni pisand etmadi. Kuylashga, qalamga olishga arziydigan, bashariyat gultoji bo'lgan insonlarning g'amlarini aritishga ko'mak bo'luvchi g'oyalar va aniq mavzularnigina ijodiga mezon qilib oldi. U falakning emas yerning, shu oddiy xalqning farzandi ekani bilan faxrlandi. Shu sabab ham insoniyat anduhlariga malham bo'lishni o'z millatdoshlari, atrofida yashab turgan ona xalqidan boshlashga bel bog'ladi. Buyuklik maqomi uchun, samoga bo'ylash emas bir makon-u zamonda yashab turga insonlarning g'amli qalblariga chiroq yoqa olmoq, armonlariga maslakdosh bo'la olmoq kifoya ekanligini aytadi. Aslida ham shunday yashamoq insonlikning eng buyuk shartlaridandir.

Iqbol deb behuda chekasan ohu ,
Ohing bu – folbinning daraklaridir,
Asrim, asrim deysan, asring nima u?
U-to'zg'oq kalendar varaqlaridir.
Bog'ingda bir nihol gullabdi bu kech,
Erta qiyg'os bo'lar olma naparmon.
Ilk bahor zahrini o'yladingmi hech,
Zaminda ne armon, senda ne armon?⁷

Shoir shu birgina she'ri bilan barcha millatdoshlari, zamondoshlariga ko'zgu tutadi. O'zlarini xalq uchun fidoyi, jonkuyar qilib ko'rsatganlar o'z muammolaridan bo'lak o'zgalarning armonlari haqida hech o'ylab ko'rishdimikan?! Aslida bu savol nafaqat millatdoshlarimizni , balki dunyo odamlarini xushyorlikka, o'zligini taftish etishga undovchi savoldir. Shu ma'noda anglaymizki, A. Oripov yurt tashvishi-yu

⁶ Abdulla Oripov "Munojot" Tafakkur qanoti " nashriyoti. Toshkent-2019

⁷ Abdulla Oripov "Munojot" Tafakkur qanoti " nashriyoti. Toshkent-2019

g‘amlarini butun vatandoshlari tashvishlariga teng qilmoqda. Haqiqatdan ham atrofimizda ko‘magimizga muhtoj bo‘lgan har qanday insonga yordam berishimiz, g‘amxo‘rlik qilishimiz orqali asl insoniylik tomon qadam tashlanadi.

Xulosa. Inson erki, millat ravnaqi, Vatan, xalq baxtini ijodining asosiy mezonlariga aylantirgan shoir butun hayoti, ijodini shu tuyg‘ularning har bir qalbdagi tantanasi uchun sarfladi. Shu sabali ham u umrbdod o‘z g‘oyalari, haq so‘zlariga sodiq qoldi. Hayotining hech bir daqiqasida o‘zini xalqidan ayro qilmadi. Shoir shu murakkab yo‘lni tanlamasligi, Vatan va millat dardi uchun yonib yashamasligi ham mumkin edi. Biroq adib o‘zligiga, insoniyligiga aslo xiyonat qilmadi. Shu sababli ham shoir betimsol ijodi orqali millat dardiga malham bo‘la oldi, butun hayoti davomida fidoiylilik bilan yurtdoshlari taqdiriga dahldor bo‘lib yashadi, betimsol ijodi orqali millat dardiga malham bo‘la oldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Abdurahim Erkaev “Abdulla Oripov dahosi ” “Oltin nashr”. Toshkent-2021
2. Abdulla Oripov “ Birinchi muhabbatim” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. –Toshkent-2019
3. Abdulla Oripov “Saylanma” “Tafakkur qanoti” nashriyoti. Toshkent-2019
4. Abdulla Oripov “Dunyo” G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent-2020
5. Abdulla Oripov “Munojot” Tafakkur qanoti “ nashriyoti. Toshkent-2019
6. U.Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent-1998
7. “Abdulla Oripov she’riyatida xalqona uslub va milliy ruh uyg‘unligi”
8. O‘zbekiston san’ati va madaniyati jurnali. Toshkent-2022